

## FINLANDIYA TA'LIM METODIKASI

Arzigul Toshboyeva

30-umumiy o`rta ta`lim maktabining boshlang`ich sinf o`qituvchisi.

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Finlandiya ta`limi, o`qitish metodikasi, ta`lim berish jarayoni, samarali dars o`tish sirlarini o`z ichiga oladi. Maqoladan maqsad Finlandiya ta`limini chuqur o`rganish, tatqiqotlar olib borish va ta`lim sohasida qo`llash.

**Kalit so`zlar:** taraqqiyot, Finlandiya ta`limi, quyi, yuqori, pedagoglar, mojarolar.

**Аннотация:** эта статья содержит секреты финского образования, методики преподавания, образовательного процесса, эффективного проведения уроков. Цель статьи - углубленное изучение, проведение исследований и применение финского образования в сфере образования.

**Ключевые слова:** прогресс, финское образование, низкий, высокий, педагоги, конфликты.

**Anotation:** this article contains the secrets of Finnish education, teaching methodology, educational process, effective tutoring. The purpose of the article is to study Finnish education in depth, conduct strikes and apply it in the field of Education.

**Key words:** progress, Finnish education, lower, upper, educators, conflict.

Nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o`tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko`ra, finlyandiyalik maktab o`quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek dunyodagi eng ko`p kitob o`quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, finlyandiyalik maktab o`quvchilari tabiiy fanlar bo`yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo`yicha esa beshinchi o`rinni egallashadi.

Finlyandiyada o`rtacha majburiy umumta`lim tizimi ikki bosqichli maktabni o`z ichiga oladi:

- quyi, 1-6 sinf;
- yuqori, 7-9 sinf.

Maktabda darslar nisbatan kechroq — ertalabki 9:00-9:45 dan boshlanadi, bu o`quvchilarning tiniqib uxlashi, dars vaqtida o`zini uyquchan his qilmasligi va mashg`ulotlarda tez toliqib qolmasligiga yordam beradi, darslar va tanaffuslar nisbatan uzoqroq, masalan: "Finlandiya ta`lim mo`jizasi" kitobini o`qiganida amerikalik o`qituvchi Finlandiyaning poytaxti Xelsinki o`z ish faoliyatini maktabdan boshlaydi va asta sekin ularning o`qitish, ta`lim berish metodikasini o`rganib chiqadi. Darslar davomiyligi 40-45 daqiqa bo`lsa, har bir tanaffus 15 daqiqadan ekanini va bu vaqt ichida bolalar maktab binosining tashqarisida, ya`ni hovlida bir birlari bilan o`ynab, suhbatlashib, tamaddi qilib olib darslarga ruhan va jismoniy tetik bo`lib qaytishlarini va o`zlashtirish koeffitsienti yuqori bo`lganligini qayd etgan. Bunda nafaqat o`quvchilar balki o`qituvchilar ham maktab tamaddi xonalarida, o`qituvchilar xonasida kofe ichib darsdan tashqari boshqa mavzularda

suhbatlashishadi. O'ylaymanki bu ham o'qituvchi o'z faoliyatidan, ham o'quvchi darslardan toliqmasligini taminlaydi.

Fin o'quvchilari dunyo bo'yicha maktabdan tashqari uy vazifasiga eng kam — o'rtacha yarim soat vaqt sarflaydigan o'quvchilar sifatida e'tirof etiladi. Bunda o'quvchi uyda hech kimning yordamisiz uyga vazifalarini bajarishi mustaqil harakat qilishga, o'z kuchiga va bilmiga ishonishga o'rgatadi.

O'quvchilar bilim darajasini baholash uchun standartlashtirilgan imtihonlar o'tkazilmaydi (universitetlarga kirish maqsadida ixtiyoriy ravishda topshiriladigan Milliy kirish imtihonlari bundan mustasno), har bir o'quvchiga individual yondashiladi va undagi shaxsiy o'sish individual xususiyatlariga ko'ra baholanadi, boshqa bolalar bilan solishtirilmaydi. Fin maktablarida asosiy urg'u bolani imtihonlarga emas, mustaqil hayotga va real voqelikka tayyorlashga qaratiladi. Maktablarda bitta fan boshqa fanga qaraganda chuqurroq o'rgatilmaydi bu degani matematika musiqadan ustun emas. "Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz", - deydi finlar. Shuning uchun Finlyandiyadagi maktablarda imtihonlar yo'q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari o'qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Sinflarda o'quvchilar o'zlari qiziqgan fanni o'rganishadi, har bir o'quvchining o'z qiziqish va iste'dodi bor. O'qituvchilar, bilimlarni olishni xohlaydigan kishi bo'lishiga ishonchlari komil. O'ziga xos rus tilida "majburiy yoqimtoylik qilolmaysiz" deb nomlangan so'zlar beg'ubor ishlaydi va o'smir uchun kerak bo'lmagan narsalar jadvaldan olib tashlanadi.

Maktabda ikkinchi yil bo'lib qolish ham sharmandalik emas. Hech bir talaba kasb tanlashda shoshilmayapti va qo'shimcha yil bilim va darajalarni yaxshilashga yordam beradi. O'qishni istagan odam o'qiydi. Pedagoglar o'quvchining e'tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o'rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo'lmasa, darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi", bolani kelgusida uncha murakkab bo'lmagan, amaliy jihatdan foydali bo'lgan kasbga yo'naltirishadi. Finlyandiya maktablarida hayotda kerak bo'ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo'lmaydi, uni o'rganishmaydi ham. U yerdagi bolalar bolalikdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq fozini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrif-saytini yarata olishadi. Yana shuni aytib o'tish joizki Finlyandiyada maktab bolani eng asosiysi - mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o'rgatishi kerak deya hisoblanadi. 6-sinf o'quvchilari 3-sinf o'quvchilarini mustaqil boshqarib ular bilan birgalikda tadbirga tayyorgarlik olib borgani, o'zlari o'quvchilarning ro'yxatini shakllantirib mustaqil ravishda harakat qilgani bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shu bois u yerda fikr yuritish va o'z xohishiga ko'ra bilim olishga o'rgatiladi. Shuningdek, maktabdagi pedagoglar o'quvchilar o'rtasidagi mojarolarga ham aralashishmaydi, ularga hayotiy vaziyatlarga mustaqil tayyorlanish va o'zlari uchun javob berish mas'uliyatini rivojlantirish imkoni beriladi. Finlandiyada ta'lim - besh kunlik, faqat kunduzgi smenada. Juma - qisqartirilgan kun. Amerikalik o'qituvchini fin o'quvchilari uyga o'zlari qaytishini, ularni hech kim olib ketishga kelmasigini o'qituvchilari ularni maktab darvozasigacha kuzatib qo'ymasligiga ish jarayoning boshida hayron qolgan, sababi Amerikada ish faoliyati davomida bunaqa o'quvchilarga berilgan erkinlikni ko'rmagan bu kichik harakatlar ham ularda mustaqil, komil shaxs bo'lishiga sabablaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Finlandiya ta'lim mo'jizasi – kitobi
2. Finlandiya ta'lim tizimining asosiy afzalliklari va kamchiliklari- Alisher Anvarov maqolasi